

O'QITUVCHINING KASBIY MAHORATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

*Nasiba Abdullaeva Jo'raxonovna
Pedagogika fanlari doktori, professor
Tajiboyeva Odinxon Rustamjon qizi
ADPI Pedagogika va psixologiya
yo'nalishi 1 - bosqich magistri*

Annotatsiya. Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga etkazish va uni ma'lum bir kasbga yo'naltirish og'ir va mashaqqatli mehnat evziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat uzluksiz ta'lim va tarbiyaviy faoliyatning mahsulidir. Ushbu maqolada o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirishda pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati yoritib berilgan.

Аннотация. В любом обществе непросто воспитать зрелое поколение, привести его к взрослой жизни или направить к определенной профессии. Это результат непрерывного образования и обучения. В данной статье освещается роль и значение образовательных технологий в совершенствовании профессионального мастерства учителя.

Abstract. In any society, it is not easy to educate the mature generation, bring them to adulthood or direct them to a certain profession. This is the result of continuous education and training. This article highlights the role and importance of educational technologies in improving the teacher's professional skills.

Kalit so'zlar: pedagog, mahorat, texnologiya, kasbiy mahorat, ta'lim, tarbiya.

Ta'lim-tarbiya hamisha jamiyat taraqqiyotining asosi bo'lgan. Chunki, inson jamiyatdagi barcha munosabatlar, aloqalarning markazida turadi. Kelajakda buyuk maqsadlarga etishish uchun eng avvalo yuqori malakali, xalqaro talablarga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlashimiz kerak. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qarori aynan shu masalaga qaratilganidir.

Ta'lim tizimini takomillashtirish, uning sifat darajasi va samaradorligini oshirish bir qator omillar bilan chambarchas bog'liq. Dars jarayonini to'g'ri tashkil etish, o'quvchilarni bilim olishga bo'lgan qiziqishining uyg'onishiga turtki berish zamonaviy pedagoglardan pedagogik-psixologik hamda uning texnologiyalarini bilishni talab etadi.

XX asrning 20-yillarida "ta'lim texnologiyasi" termini birinchi bor pedagogika bo'yicha adabiyotlarda tilga olingan. Shu vaqtning o'zida yana bir boshqa - "pedagogik texnika" termini ham tarqaldi. U pedagogik ensiklopediyada 30-yillarda o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga qaratilgan uslublar va vositalar sifatida ifodalangan. "Pedagogik texnologiya - bu, ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyatini hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilish, o'zlashtirishning obarcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir. (YUNESKO) Bu ta'rifda pedagogik texnologiyaning ko'p jihatlari ochib berilgan bo'lib, asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga yakka xolda emas, balki tizimli

yondashish asos qilib olingan. Ushbu ta’rifga mazmun va mohiyat nuqtai nazaridan yaqin ta’rifni fikrimizcha yapon pedagogi, olim T. Sakamoto izohlagan. Uning fikricha - “Pedagogik texnologiya-bu majmualiy fikr yuritish metodini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir majmuaga keltirishdir”. Mazkur, yuqoridagi ikki ta’rif, shubhasiz tayanch soʻzlar “tizimli yondashuv” va “majmualiy yondashuv” asosiy, pedagogik texnologiya mazmunini anglatuvchi tayanch soʻzlar boʻlib, ta’riflardagi boshqa barcha soʻzlar tizim sifatida pedagogik texnologiya mohiyatini tavsiflaydi. Pedagogik texnologiyalarga oʻquv va laboratoriya uskunalari bilan ishlash, koʻrgazmali qoʻllanmalardan foydalanishlar mahoratlari ham kiritilgan. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan soʻng hamma sohalarida chuqur oʻzgarishlar amalga oshirildi. Shu jumladan ta’lim tizimida ham. Bu oʻzgarishlar butun ta’lim mazmunini qayta tashkil etishni, ta’lim muassasalari faoliyatini, maqsad va vazifalarini hamda ularni boshqarishni oʻzgartirishni talab etdi. Chunki bu ta’lim jarayoni oʻqitish texnologiyasining yadrosini tashkil etadi. Mutaxassisga boʻlgan har tomonlama talabni qanoatlantirishga qaratilgan ta’lim texnologiyalari pedagog va talabaning hamkoriigiga tezlikda moslangan psixologik-pedagogik shart- sharoitlarni amalga oshirishga yoʻnaltiradi. Respublikamizda ta’lim tizimining yangilanganligi, oʻqitish mazmunini yangilashga, u esa, oʻz navbatida ta’lim mazmunini va uni belgilovchi hujjatlar (oʻquv rejasi, oʻquv dasturi, darsliklar)ning yangilanishiga olib keldi. Bu yangilanishlar oʻz navbatida, tabiiyki oʻqitish jarayonini rejalashtirish, dars mashgʻulotini loyihalashtirishga yangicha yondashishni, oʻquv-tarbiya jarayonini yangicha tashkil qilishni taqazo qildi. Bu esa oʻz navbatida «ilmiy-texnikaviy tadqiqotlarning samaradorligini oshirish, yangi izlanishlarni yoʻlga qoʻyish va ishlab chiqarishga joriy etish» zaruriyatini paydo qiladi. Shundan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiyalar ishlab chiqiladi. Pedagogik texnologiyalar tariflariga boʻlgan turli yondashuvlar shuni koʻrsatadiki, haqiqatdan ham oʻqitish texnologiyalari fan va ishlab chiqarish hamda oʻquv-pedagogik jarayon oraligʻidan oʻrin oladi. Ilgʻor va innovator pedagoglarning ish tajribalarini kuzatish, ilgʻor tajriba maktablari faoliyatini oʻrganish shundan dalolat bermoqdaki, pedagogik texnikani toʻliq egallash, uning malakalarini oʻzida shakllantirish ta’lim – tarbiya samaradorligini oshirishga, oʻquvchi-yoshlar tarbiyalanganligini yuksaltirishga va shu asosda pedagogik mahorat pillapoyalari sari koʻtarilishga sabab boʻladi.

Oʻqituvchining pedagogik faoliyat madaniyati tizimida pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari pedagogik texnika, pedagogik odob, pedagogik muloqot madaniyatining roli katta ekanligi eʼtirof etilgan. Mazkur muammoni ham pedagogik, ham psixologik jihatdan ilmiy-nazariy, uslubiy-tashkiliy hamda amaliy jihatdan tadqiq qilgan YU.P.Gonobolin, N.V.Kuzmina, A.N.Sherbakov, V.A.Selastenin, L.I.Ruvinskiy, V.N.Kuxarev, I.A.Zyazyun N.N. Tarasevich, M.G.Davletshin, K.Zaripov S.Rajabova, B.Xoʻjaev va boshqalar oʻqituvchining kasbiy tayyorgarligida pedagogik texnikaning muhim ahamiyat kasb etishini alohida eʼtibor bilan qayd qiladilar. XVII asrning boshlarida jahon pedagogikasining taniqli asoschisi Ya.A.Komenskiy oʻqituvchining asosiy maqsadi: “Talabalar tomonidan oʻrnak boʻlishga chorlovchi shaxsiy yuksak axloqi, odamlarga muhabbati, bilimi, mehnatsevarlik va boshqa fazilatlarini namoyish qila oladigan, insonparvarlik asosida tarbiyaviy ishlarni olib boradigan, oʻz kasbining etuk mutaxassisi boʻlish”, - deb taʼkidlagan. Ushbu tarixiy fikrlar ayni kunda ham boʻljak mutaxassislar tayyorlashda birdek ahamiyatlidir. Oʻqituvchining kasbiy mahortini oshirishda pedagogik texnologiyaning maqsadi—ommaviy ta’lim sharoitida ta’lim jarayonining zaruriy

samaradorligini ta’minlash va talabalar tomonidan o’qishning ko’zlangan natijalariga erishish kafolatidan iboratdir. O’qituvchining kasbiy mahortini oshirishda pedagogik texnologiyaning vazifasi—ommaviy ta’lim sharoitida «oddiy» pedagoglarga o’qitishning yetarli samarasiga erishishni ta’minlovchi, o’quv jarayonini yaratish hisoblanadi.

Har bir pedagog kasbiy mahoratini oshirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishi bugungi kunning, yangi davrning muhim talablaridan biridir. O’qituvchining kasbiy zaruriy fazilatlarini – bilimdonlik, kreativlik, tanqidiy fikrlash, yangilikka chanqoqlik, chidamlilik va o’zini tuta bilishi, boshqaruvchiligi kabi fazilatlar ham pedagogik texnikani o’rganish jarayonida sayqallanib boradi. Pedagogik texnikaning ajralmas elementi o’qituvchining o’z e’tiborini va talaba e’tiborini boshqarish qobiliyatidir. O’qituvchining kasbiy mahortini oshirishda pedagogik texnologiyaning o’rni benihoya kattadir. Yosh avlodni ruhan, jismonan, aqlan va barkamol shaxs qilib tarbiyalashda pedagoglarning faoliyati beqiyosdir! Xulosa qilib aytganda yangi davr o’qituvchisiga qo’yilgan talablardan kelib chiqib, avvalo, kasbiy amaliyotda muhim bo’lgan barcha pedagogik kompetensiyalarni o’zlashtirish bilan bir qatorda yangi zamonaviy texnologiyalardan maqsadli foydalanish, ularni o’rinli qo’llash va yuqori natijaga erishishning omili sifatida bo’lajak o’qituvchilarda rivojlantirish- ta’lim jarayonining sifatini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirok etishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 05.06.2018 yildagi PQ-3775-sonli Qarori //http://lex.uz.
2. M.Azimjanova, T.Muradova, M.Pazilova. Informatika va axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, –T: 2013
3. O‘. Tolipov, M. Usmonboeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005
4. www. tdpu. uz